




ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT VOSITASIDA INGLIZ TILINI MUSTAQIL O'RGANISHNING EFFEKTIV METODIKASI

Ergasheva Dilafruz

Mustaqil tadqiqotchi, yosh olim

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20998253>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-iyun 2026 yil

Ma'qullandi: 15-iyun 2026 yil

Nashr qilindi: 28-iyun 2026 yil

KEY WORDS

ingliz tili, metodika, sun'iy intellekt, neyrotarmoq, mobil ilovalar, mustaqil ta'lim, lingvistik kompetensiya, kollokatsiyalar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada globallashtirish davrida xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini mustaqil ravishda o'rganishda zamonaviy raqamli texnologiyalar, mobil ilovalar hamda sun'iy intellekt (AI) tizimlarining roli tahlil qilinadi. Muallif o'zining shaxsiy amaliy tajribasidan kelib chiqqan holda, "Ibrat farzandlari", "Duolingo", "Wisdom" kabi platformalar hamda ChatGPT, Gemini kabi neyrotarmoqlarning lingvistik ko'nikmalarni rivojlantirishdagi samaradorligini yoritib beradi. Shuningdek, nutq o'stirish (Speaking) va so'z boyligini oshirish bo'yicha konseptual taklif va metodik tavsiyalar ilgari suriladi.

Kirish. Til — shunchaki muloqot vositasi emas, balki insonga keng va yorqin fikrlashni, dunyoqarashni kengaytirishni o'rgatuvchi ulug'vor xazinadir. Bugungi kunda ona tilimiz — o'zbek tilining xalqaro miqyosdagi o'rnini va ulug'vorligini anglagan holda, jahon hamjamiyati madaniyatini, ilm-fan yutuqlarini chuqur his qilish va o'zlashtirishda ingliz tilining o'rnini beqiyosdir. Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalarining rivojlanishi yosh tadqiqotchilarga chet tillarini an'anaviy sinfxonalardan tashqarida, mutlaqo mustaqil va kreativ usullarda o'rganish uchun cheksiz imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Telefon va internet gadgetlaridan to'g'ri maqsadlarda foydalanish, yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirishning bosh omilidir.

Metodologiya va amaliy yondashuv. Muallifning shaxsiy amaliy tadqiqotlari jarayonida til o'rganish dinamikasini bir necha barobar tezlashtiruvchi raqamli ekotizim shakllantirildi. Ushbu ekotizim quyidagi muhim komponentlardan tashkil topgan:

1. Mobil ta'lim platformalari: O'zbekiston yoshlari uchun yaratilgan "Ibrat farzandlari", shuningdek xalqaro miqyosdagi "Duolingo" va "Wisdom" ilovalari har kuni yangi leksik birliklar (so'zlar) va grammatik konstruksiyalarni tizimli o'zlashtirishda poydevor vazifasini o'tadi. Interaktiv chat-ilovalar (shu jumladan, xalqaro hamjamiyat loyihalari) orqali xorijlik tengdoshlar bilan bevosita ingliz tilida jonli muloqot muhiti yaratildi.

2. Sun'iy intellekt (AI) imkoniyatlari: Hozirgi kunda ChatGPT va Gemini kabi ilg'or sun'iy intellekt modellari til o'rganuvchilar uchun virtual "aqli elektron kitob" hamda shaxsiy tyutorga aylandi. Xususan, milliy va xalqaro imtihon tizimlarining (masalan, CEFR yoki IELTS) "Writing" (Esse) bosqichiga tayyorlanishda neyrotarmoqlardan keng foydalanildi. Sun'iy intellekt yordamida yuqori akademik darajadagi akademik iboralar, advanced darajadagi

sinonimlar va idiomalar o'rganildi, bu esa yozma nutqning stilistik jihatdan mukammallashishini ta'minladi.

Natijalar va muhokama. Nutqiy ko'nikmalarni (Speaking) shakllantirishda vizual va audio materiallar, xususan, kinematografiya, badiiy va musiqiy animatsiyalar alohida ahamiyatga ega. Bolalar va o'smirlar uchun mo'ljallangan xorijiy multfilmlar insonga go'yoki virtual sayohat atmosferasini taqdim etadi hamda so'zlarni kontekst ichida to'g'ri talaffuz va intonatsiya bilan tushunishga ko'maklashadi.

Ko'pchilik til o'rganuvchilarda uchraydigan eng katta muammo — erkin gapira olmaslik, ya'ni fikrni inglizcha shakllantirishdagi psixologik to'siqdir. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun muallif tomonidan quyidagi "Tezkor integratsiya taktikasi" ishlab chiqildi:

- Atrof-muhit vizualizatsiyasi: Inson kundalik hayotida ko'rib turgan barcha predmetlarini (masalan: pen, wall, cake, sofa va h.k.) miyada inglizcha nomlashni odat qilishi lozim.

- Tayyor shablonlar (Chunking method) auditi: Inson o'z-o'zidan shunchaki grammatik qoidani bilish bilan ravon gapirib keta olmaydi. Buning eng samarali yechimi — kinolar, badiiy matnlar yoki raqamli ilovalardan olingan qiziqarli iboralar va mazmunli gap strukturasi shablonlarini maxsus daftarga qayd etish hamda ularni yodlashdir. Muayyan vaqt o'tgandan so'ng, ushbu tayyor shablonlar miyada zaxira bo'lib yig'iladi va inson ongosti darajasida ushbu gaplarga o'z so'zlarini qo'shib, yangi va mustaqil gaplar tuza boshlaydi. Natijada shaxsdagi fikrlash apparati inglizcha dunyoqarashga moslashadi.

Xulosa. Zamonaviy texnologiyalar asrida telefondan ijtimoiy tarmoqlardagi vaqtning behuda sarflash vositasi sifatida emas, balki ilm va ma'rifat manbai sifatida foydalanish har bir yosh savodxonning ustuvor vazifasidir. Raqamli ilovalar va sun'iy intellekt vositasida shakllantirilgan til o'rganish metodikasi yoshlarga nafaqat vaqt va mablag'ni tejash, balki global miqyosda raqobatbardosh kadr bo'lib yetishish imkonini beradi. Barcha intiluvchan yoshlarga o'z oldilariga qo'ygan yuksak maqsadlariga erishishlarida ulkan zafarlar tilab qolamiz.

INNOVATIVE
ACADEMY